

VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.

Viloyatda bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 422,0 mln. AQSh dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 259,0 mln. AQSh dollariga, yoki 22,3 % ga ko‘paydi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024-y. **1 422,0** +22,3 %
(2023-y. **1 163,1**)



Saldo

2024-y. – **687,2**
(2023-y. – **589,9**)



Eksport

2024-y. **367,4** + 28,2 %
(2023-y. **286,6**)



Tovarlar: **339,2**



Xizmatlar: **28,2**



Import

2024-y. **1 054,6** +20,3 %
(2023-y. **876,5**)




Tovarlar: **1 051,9**



Xizmatlar: **2,7**

SAMARQAND VILOYATINING YEOfIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Samarqand viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 505,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 190,9 mln. AQSh dollari, import hajmi esa 314,9 mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YeOfining a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

**SAMARQAND VILOYATINING SHAHAR VA TUMANLAR
KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2024-yil yanvar-iyun)***

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Samarqand viloyati	1422,0	122,3	100,0
Samarqand shahri	832,2	143,5	58,5
Kattaqo'rg'on shahri	24,9	127,2	1,7
tumanlar:			
Oqdaryo	23,1	116,7	1,6
Bulung'ur	14,3	126,5	1,0
Jomboy	138,9	153,4	9,8
Ishtixon	12,5	107,8	0,9
Kattaqo'rg'on	19,9	20,1	1,4
Qo'shrabot	2,5	68,9	0,2
Narpay	17,6	107,8	1,2
Payariq	8,5	88,1	0,6
Pastdarg'om	28,9	87,0	2,0
Paxtachi	11,1	166,2	0,8
Samarqand	98,7	101,3	6,9
Nurobod	9,8	78,3	0,7
Urgut	105,6	124,6	7,4
Toyloq	64,1	102,7	4,5

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

58,5 % **Samarqand sh. – 832,2**

9,8 % **Jomboy – 138,9**

7,4 % **Urgut – 105,6**

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari

0,2 % **Qo'shrabot – 2,5**

0,6 % **Payariq – 8,5**

0,7 % **Nurobod – 9,8**

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulush Samarqand shahri (58,5 % yoki 832,2 mln. AQSh dollar), eng quyi ulush esa Qo'shrabot tumani (0,2 % yoki 2,5 mln. AQSh dollar) hissasiga to'g'ri keldi.



SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTI

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar tomonidan 367,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 128,2 % ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.

XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024-yil yanvar-iyun, ulushi % da)




Samarqand viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

**SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR
KESIMIDA EKSPORTI**



*(2024-yil yanvar-iyun)**

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Samarqand viloyati	367,4	128,2	100,0
Samarqand shahri	166,0	138,2	45,2
Kattaqo'rg'on shahri	15,8	168,0	4,3
tumanlar:			
Oqdaryo	12,0	133,6	3,3
Bulung'ur	6,7	91,7	1,8
Jomboy	37,4	123,3	10,2
Ishtixon	7,1	90,3	1,9
Kattaqo'rg'on	3,2	91,0	0,9
Qo'shrabot	1,4	133,6	0,4
Narpay	8,4	90,2	2,3
Payariq	6,2	116,4	1,7
Pastdarg'om	4,7	60,4	1,3
Paxtachi	6,7	128,6	1,8
Samarqand	47,6	139,3	12,9
Nurobod	0,5	33,4	0,1
Urgut	24,8	110,8	6,7
Toyloq	9,4	121,6	2,6

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri 45,2 % ulush bilan 166,0 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Nurobod tumani 0,1 % ulush bilan 0,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.




SAMARQAND VILOYATINING IMPORTI

2024-yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi 1 054,6 mln. AQSh dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan 120,3 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng yuqori ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (31,9 %), kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (26,9 %) hamda sanoat tovarlari (23,4 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.



XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-iyun, ulushi, % da)




Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 176,8 mln. AQSh dollariga ko‘paydi va 1 051,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar 2,7 mln. AQSh dollariga yetdi.


**SAMARQAND VILOYATINING TUMANLAR
KESIMIDA IMPORTI**
(2024-yil yanvar-iyun)

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Samarqand viloyati	1054,6	120,3	100,0
Samarqand shahri	666,2	144,9	63,2
Kattaqo'rg'on shahri	9,1	89,7	0,9
tumanlar:			
Oqdaryo	11,1	102,6	1,1
Bulung'ur	7,6	189,3	0,7
Jomboy	101,5	168,5	9,6
Ishtixon	5,4	145,2	0,5
Kattaqo'rg'on	16,7	17,4	1,6
Qo'shrabot	1,0	41,2	0,1
Narpay	9,2	131,0	0,9
Payariq	2,3	53,2	0,2
Pastdarg'om	24,2	95,2	2,3
Paxtachi	4,4	3,0 m.	0,4
Samarqand	51,1	80,8	4,8
Nurobod	9,3	84,7	0,9
Urgut	80,8	129,5	7,7
Toyloq	54,6	100,0	5,2

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri 63,2 % ulush bilan 666,2 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani 0,1 % ulush bilan 1,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.